

MITTI QAHRAMONLAR ISHTIROK ETGAN ERTAKLARDA SEHRLI TUG'ILISH MOTIVI

Laziza ORIFOVA

tayanch doktorant

O'zbekiston Respublikasi FA

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada “Quloqboy”, “Yarimta jon”, “Yarimta no‘xat” kabi mitti qahramonlar ishtirok etgan o‘zbek xalq ertaklari tahlil qilingan va ularda sehrli tug‘ilish motivining o‘rni yoritilgan. Sehrli tug‘ilish motivi tarkibidagi befarzandlik va homiladorlik motivlarining ertaklardagi vazifalari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘zbek xalq ertaklari, sehrli ertaklar, mitti qahramon, befarzandlik motivi, homiladorlik motivi.

МОТИВ ВОЛШЕБНОГО РОЖДЕНИЯ В СКАЗКАХ С УЧАСТИЕМ ГЕРОЕВ-КАРЛИКОВ

Лазиза ОРИФОВА

Базовый докторант

Института узбекского языка, литературы и фольклора

Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируются узбекские народные сказки с участием карликовых персонажей, таких как "Кулокбой," "Яримта жон," "Яримтанохат," и освещается роль легендарного мотива рождения. Раскрыты функции мотивов бездетности и беременности в составе легендарного мотива рождения в сказках.

Ключевые слова: узбекские народные сказки, волшебные сказки, карликовый герой, мотив бездетности, мотив беременности.

Xalq og‘zaki ijodiyotiga oid asarlar tadqiqiga yangi usul, shakllarning kirib kelishi, xususan, sehrli ertaklardagi obrazlar, motivlar va syujetning qayta idrok etilishi, mifologik asos talqinlarining yangilanishi ertak olamiga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirmoqda. Ijodiy imkoniyatlar sarhadining kengayishi kreativ yechimlarning kirib kelishiga turtki bermoqda. Bu holat, o‘z navbatida, sohada amalga oshayotgan izlanishlar va mavjud masalalarning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Zero, insoniyat badiiy tafakkurining yanada takomillashuvi, rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi ertaklar va ulardagi obrazlarning milliy o‘ziga

xos jihatlarini keng targ'ib qilish nafaqat muayyan soha, balki butun xalq ijodiyoti mohiyatini va shu orqali inson ruhiyati, ijod jarayonlari xossalarini yoritishga, asar mazmun-mundarijasini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bugungi taraqqiyot bilan bog'liq o'zgarishlar hamda ertak obrazlarini variantlar misolida qiyoslash dolzarb masalalardan biridir.

Sehrli ertak obrazlari, motivlari va syujet tiplarini aniqlash natijasida ertak nazariyasi va epik ijod tabiatini belgilovchi ko'plab konsepsiyalar yuzaga kelib, bu borada muayyan natijalarga erishilgan. Olib borilayotgan ilmiy izlanishlar asosida o'zbek xalq sehrli ertaklarining obrazlar tizimi, obrazlarning syujetda tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra tiplari, qahramonlar funksiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, obrazlarning zamon va makon bilan bog'liqligi, qahramonlarning an'anaviy atributlari badiiyati, ertaklardagi ismlar, joy nomlari kabi masalalarni har tomonlama batafsil tekshirishda keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Ertakshunoslikda ushbu dolzarb masalalarning ijobiy hal etilishi xalq ertaklarining insoniyat badiiy tafakkuri tadrijidagi o'rni hamda har bir shaxs kamolotidagi vazifasini aniq belgilashga va xolis baholashga zamin yaratadi.

Xalqning ma'naviy merosi hisoblanib, nafaqat bolalar, balki kattalar ma'naviy olamini boyituvchi, ularga estetik zavq beruvchi xalq og'zaki ijodining epik turiga mansub bo'lgan ertaklar tarkibidagi voqeliklarni bir-biriga bog'lab turuvchi motivlar syujetda muhim o'rin tutadi. Sehrli ertaklar turkumiga kiruvchi mitti qahramonlar ishtirok etgan ertaklar ham shular jumlasidandir. Mitti qahramonlar tashqi ko'rinish jihatdan juda kichik, uddaburon, aqlli qahramonlardir. Ertaklarni o'rgangan J.Asqarova o'z tadqiqotida mitti qahramonlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Kampirdan tug'ilgan g'ayrioddiy qahramonlar notabiiy ko'rinishlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Ularda odam+g'ayritabiiy mavjudot unsurlari ko'zga tashlanadi. Qahramon mitti yoki noqis bo'lsa-da bemisl ishlarni amalga oshiradi" [1;87].

Bunday qahramonlar ishtirok etgan ertaklar odatda sehrli tug'ilish motivi tarkibiga kiruvchi befarzandlik motivi bilan boshlanadi. Atoqli folklorshunos olim K.Imomov o'z tadqiqotida farzandsizlik motivi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

“U ertak syujetining epik qismini tashkil etadi. U tugun vazifasini o‘tab, asar mohiyatini yoritadi. Qahramonni idealashtirish ana shu motivdan boshlanadi” [2; 130]. Mitti qahramonlar ishtirok etgan ertaklarda farzandsiz qahramonlar aksar hollarda mehnatkash dehqon chol va kampir bo‘lishadi. Odatda bunday ertaklar “Chol bilan kampir bor ekan. Ularning farzandi yo‘q ekan” [3; 105], “Qadim zamonlarda bir ovulda ikki bir-biriga yaqin hamsoya yashar ekan. Bittasining bolasi bor, ikkinchisining bolasi yo‘q ekan” [4; 362] deb boshlanuvchi an’anaviy boshlama bilan boshlanadi. Ba’zan befarzand qahramon podshoh ham bo‘lishi mumkin: “Bir podsho o‘tgan ekan, uning uchta xotini bo‘lib, uchalagi ham tug‘mas ekan” [5; 53]. So‘ngra ertak syujeti tasodifiy homiladorlik motivi bilan davom etadi. K.Imomov fikricha, “Bu hodisa ertaklarda tugun yechimini tashkil etadi. Motiv ibtidoiy jamiyat, mifologik e’tiqodning o‘ziga xos belgilarini aks ettirgan” [2; 131]. Bu motiv turli sabablar tufayli yuzaga chiqadi. Folklorshunos olim K.Imomov monografiyasida keltirilishicha, “Ibtidoiy kishilar tushunchasida homiladorlik ayol tanasiga totem(muqaddas narsa) ning kirishidan deb hisoblangan. Demak, tasodifiy homiladorlikning paydo bo‘lishi ikki tushuncha, biri magiya, ikkinchisi diniy e’tiqod bilan izohlangan” [2; 132].

“Yarimta no‘xat” deb nomlangan xalq ertagida kampirning nolishi diniy e’tiqodga to‘g‘ri keladi. “Bir kuni kampir turib-turib, – Ey xudoyim, menga ham bir o‘g‘il bersang edi. Cholga men non tashib yurmas edim, – debdi. Xuddi shu mahal, xudo mehribon bo‘lib, ayol yukli bo‘libdi”.

“Yarimtajon” ertagida esa tasodifiy homiladorlik devona bergan olma tufayli kuzatiladi. Bunda devona – qirqchiltonlarga aloqador shaxs, u podshohga bergan olmalar esa sehrli tug‘ilishni ta’minlovchi vosita. Yuqoridagi fikrimizni K.Imomov mulohazalari bilan asoslash o‘rinlidir: “Mifologik e’tiqodga ko‘ra, qirqchiltonlar g‘ayritabiiy kuchga ega, kunduz kuni oddiy odam, ba’zan devona shaklida paydo bo‘ladi”. “Devona: – Xafa bo‘lma, – deb podshoga uchta olma beribdi. Olmalarning ikkitasi oq, bittasi qizil ekan. – Qizil olmani eng sevgan xotiningga bergin, – debdi”.

“Quloqboy” ertagida hech qanday sababsiz, kutilmagan homiladorlik ro‘y beradi: “Kundan-kun, oydan-oy o‘tib, cholning xotini homilador bo‘libdi”.

Mitti qahramonlar haqidagi ertaklarda yuqorida kuzatilgan holatlardan so‘ng tasodifiy homiladorlik g‘ayritabiiy tug‘ilish motiviga ulanib ketadi. “Podshoning xotinlari homilador bo‘lishibdi. Oy-kuni yetib tug‘ishibdi. Katta xotinlar bittadan ikki o‘g‘il tug‘ishibdi, kichkinasi esa yarimta o‘g‘il tug‘ibdi”. Yuqoridagi ertakda bolaning oddiy odam bolasidek emas, yarimta bo‘lib tug‘ilishiga sabab ko‘rsatiladi: “Podshoning kichik xotini xamir qilayotgan ekan, podsho bergan qizil olmaning yarmisini yeb, yarmisini tokchaga qo‘yibdi. Shu payt olmaning qolgan yarmisini echki yeb qo‘yibdi”, “Kampir qarasa, yarimta no‘xat tug‘ilibdi”.

“Quloqboy” ertagida ham tug‘ilishda o‘zgachalik yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Kunlardan bir kun kampirni to‘lg‘oq tutibdi. Chol shunday qarasa, xotini yettita quloq tug‘gan emish”. Ertak voqealari davomida mitti qahramonlarning xususiyatlari ochilib boradi. Masalan, “Yarimta no‘xat” ertagida qahramon tug‘ilib, “Yarimta no‘xat shu zahoti tilga kiribdi”, “Ularning surati quloqqa o‘xshasa ham og‘zi, ko‘zi bor, ovqat yer ekan. Har biri bir odamning ovqatini yeb qo‘yar ekan”. Yuqoridagi ertaklar syujetida mitti qahramonlarning sarguzashtlari asosiy o‘rin egallaydi. “Quloqboy”, “Yarimta no‘xat” ertaklarida bolalar onasi zimmasidagi yumushlarni yengillashtirishga harakat qiladilar. “Ena, nonni menga bering, otamga men olib boraman, – debdi u. Onasi: – Bolam Quloqboy, nonni qanday qilib olib borasan? – desa, Quloqboy: – Non bilan meni mana bu qovoqqa solib qo‘ying, olib keta beraman, – debdi. Kampir Quloqboyning so‘zidan dimog‘i chog‘ bo‘lib, non bilan uni qovoqqa solib eshikdan chiqarib yuboribdi. Quloqboy qovoqni yumalatib nonni olib ketibdi”, “Yarimta no‘xat non, qatiqni olib, yantoqlarni oralab, otasi oldiga boribdi”.

Yarimta no‘xat, Quloqboy singari mitti qahramonlar otasiga ham jonkuyar yordamchi bo‘lib, otasi zimmasidagi vazifalar: qo‘sh haydash, tegirmonga un tortirish kabi ishlarni bajarishga ko‘maklashadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish davomida mitti bo‘lsa-da, o‘zlariga xos bo‘lmagan darajada yirik ishlarni uddalay olishi tasvirlanadi. Qahramonlar kichikligi tufayli turli muammolarga ham

yo‘liqadilar, ya’ni, Quloqboyni tuya, it, bo‘ri; Yarimta no ‘xatni esa tuya va bo‘ri kabi hayvonlar ozuqalariga qo‘shib yeb qo‘yadilar. Yuqoridagi ikki ertakda ham bo‘ri qo‘ylarni yeyish uchun yaqinlashganda qahramon uning qornida turib, cho‘ponlarni xavfdan ogohlantiradi.

“Yarimtajon” ertagida esa Yarimtajonning akalari ortidan xo‘rozga minib ovga chiqishi, ularning kechki payt adashib qolib yalmog‘iz kampir uyiga kirishlari, Yarimtajonning sarguzashtlari bilan birga uning uddaburonligi ham hikoya qilinadi. “Yarimtajon kampir pishirib qo‘ygan quymoqlarni bittadan cho‘pga ilib-ilib akalariga olib beraveribdi”. So‘ng Yarimtajonning hiyla bilan yalmog‘iz kampirning o‘limiga sabab bo‘lishi, uning barcha mol-dunyolarini akalari bilan birga uyga olib ketishi kabi voqealar tasvirlanadi.

“Yarimtajon”, “Quloqboy” ertaklari tugallamasida an’anaviy yaxshilik, tantanali vaziyat ifodalanadi. “Podsho yo‘qolib ketgan bolalarining topilganiga xursand bo‘lib, qirq kechayu, qirq kunduz to‘y qilib beribdi. Aqlli Yarimtajonni o‘z o‘rniga podsho qilib, murod-maqsadiga yetibdi”, “Qarindoshlarini chaqirib, Quloqboyga to‘y qilib berishibdi. Shunday qilib, kampir bilan chol Quloqboydan dimog‘i chog‘ bo‘lib, murod-maqsadiga yetibdi”. “Yarimta no‘xat” ertagi esa fojiaiy yakun topadi. “Qo‘shnisining o‘g‘li o‘tin terishga chiqib qarasa, bir to‘da o‘tin turibdi. Buni bizga taqdir qildi deb, o‘tinni ko‘tarib hovlisiga olib boribdi. Uning onasi tandirga o‘tin solib, no‘xatni ham kuydirib yuboribdi”.

G‘ayritabiiy tug‘ilgan personajlar haqida J.Yusupov “befarزند oilaga homiy ruhlar aralashuvi, ya’ni magik xususiyatga ega bo‘lgan biror narsani kampir yeganidan keyin homiladaor bo‘lishi sabab bo‘ladi. Ertakning qadimiy syujet tiplarida g‘ayritabiiy tug‘ilish motivi tugal tuzilishga ega bo‘lgan, homiy ruhlar madadidan bahramand bo‘lish lavhasi tasvirlangan bo‘lishi kerak. Aytuvchining epik bilim doirasi cheklaganligi yoki mahoratsizligi tufayli motivning bosh qismi tushib qoldirilgan yoxud unutilgan bo‘lishi mumkin” [6, 23], degan fikrni bildiradi. Bizningcha, barcha noqis tug‘ilgan personajlar haqidagi ertaklarning initsial qismida bu haqda aytilmasligi, ijodkorlar barcha variantlarda olim aytgan motivni unutib qoldirishlari mumkin emas. Kampirning birida devdek, birida

yalmog'izdek, birida polvon, boshqasida quloqdek yoki aqlli bola tug'ishi va tug'ilganlarning bari jismonan noqis ekanligi bunday ertaklarda chol va kampir mifologik mavjudot bo'lishi mumkin, degan fikrni uyg'otadi. Turkshunos olim V.A.Gordlevskiy Usmonlilar demonologiyasidagi dev-kampirni quyidagicha tasvirlaydi: "uning boshida bir ko'zi bor va inson go'shti bilan oziqlanadi. Bir kuni dev-kampir bir yigitni uyga olib kirib yemoqchi bo'ldi, ammo yigit uning hiylanayranglarini bilardi. U kampirning temir tayog'ini olib olovga tashladi, uni qizdirib dev-kampirning qornini yordi va undan qutildi" [6; 321]. Bu tasvirlar "Pufakvoy" ertagi syujetiga juda uyg'un keladi. Fikrimizcha, "dev-kampir"dan tug'ilgan bola – Pufakvoyning qorniga qizdirib bosilgan otashkurak aslida mifologik kampirning muhim atributidir.

Umuman olganda, kampir obrazining ko'p qirraliligi uning uzoq vaqt davomida shakllanganidan darak beradi. O'zbek tilining izohli lug'atida "kampir" so'zi asli forsiycha bo'lib, "qari odam, erkak yoki ayol" ma'nosini bildirishi aytilgan [7;310]. "Qisasi Rabg'uziy"da kampir so'zi "qurtqa" shaklida uchraydi. "Qisasi Rabg'uziy"da keltirilgan termin og'zaki ijodda faollashmagan bo'lib, bu so'z XIII-XIV asrlarda xalq jonli tilida ishlatilgan, hozirgi kunda esa eskirib, kampir ekvivalenti bilan almashgan arxaik so'z" [8; 54].

Qozoq folklorshunosi S.Qondibay ushbu so'zni shunday izohlaydi: "O'rta Osiyo xalqlari orasida "kam-pir" so'zi (VIII-XII asrlar) qadimgi turkiy so'z "qam" va so'fiyliklik tariqasidagi forsiycha "pir" so'zlarining qo'shilishidan shakllangan. Bu davrda pir so'zi so'fiylikdagi "pir" emas, balki tabiat hodisalarining timsoli bo'lgan ayol ko'rinishidagi ruhlarning nomi sifatida ishlatilgan. Keyinchalik bu so'z ertaklardagi sehrli kuch sohibalariga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, yillar o'tib keksa yoshdagi barcha ayollar "kampir" deya atala boshlangan". Qadimgi turkiy tilda "qam" so'zi "shomon" ma'nosini anglatganini hisobga olsak, kampir obrazida ilohiy kuch-qudrat mavjudligi oydinlashadi. Shuningdek, arxeologik va etnografik tadqiqotlarda ham eng qadimgi davrlarda tabiatdagi fasl o'zgarishi bilan bog'liq marosimlarda ayol xudolar obraziga sig'inish urf-odati mavjudligi aytiladi: "Tabiat hodisalari va kuchlarini ilohiylash, hamisha tirilib turadigan tabiatning abadiyligini

ifodalovchi motam-ma'raka marosimining markaziy siymosiga aylangan xudo obrazi ayollarning homiysi sifatida butun Sharq mamlakatlarida, qadimgi Misr, Yunoniston, Rimda o'tkaziladigan maxsus bayramlarda namoyish qilingan. Hozirgacha saqlanib kelgan momolar obrazi, bir tomondan, ayollarning homiyligini ifodalovchi g'ayritabiiy kuch (xudo)lar obrazi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, keksa ayollar ibodati (kulti) bilan bog'liq animistik tasavvurlarni ifodalaydi".

Yuqoridagi uch ertakning o'xshash jihatlari ulardagi mitti qahramonlarning o'g'il farzand ekanligi, ertak syujetida bosh qahramon sifatida ko'zga tashlanishi, aqilli va uddaburonligi, yovuzlarni yo'q qilishga harakat qilishi (yalmog'iz kampir, bo'ri kabi), mitti bo'lsa-da yirik ishlarni amalga oshirishi, mitti qahramonlarning butun emasligi (Quloqboy bundan mustasno) bo'lsa, farqli jihati esa turli predmetlarga: dukkakli o'simlikka "Yarimta no'xat", inson tana a'zosiga "Quloqboy" singari o'xshashligidir.

Xulosa qilib aytganda, mitti qahramonlar ishtirok etgan ertaklarda sehrli tug'ilish motivi o'z ichiga olgan befarzandlik va homiladorlik motivlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, g'ayritabiiy ko'rinishga ega qahramonlar aynan befarzand oilalarda dunyoga keladi. Bunday ertaklar syujetida homiladorlik motivi befarzandlik motivining mantiqiy davomi sifatida ko'zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova J. O'zbek xalq sehrli ertaklarida obrazlar tizimi: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2024. – 235 b.
2. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
3. Uchar gilam: O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 128 b.
4. Сумбул куш: сеҳрли эртақлар. 19-жилд / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жылдик. – Тошкент: Фафур Фулом, 2020. – 470 b.

5. Гулпар: ўзбек халқ эртаклари: 38-жилд / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жылдлик. – Тошкент: Renaissance press, 2024. – 444 б.
6. Юсупов Ж. Хоразм эртаклари бадиий структураси. – Урганч: УрДУ, 2008. –
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жылди. II жилд – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти, 2006. –
8. Шукурова З. “Қисаси Рабғузий” асарида қуртқа образи // Шарқ юлдузи, 2014. – № 5. – Б. 54.